

## **OLIY TALIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOG XODIMLARNING INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Matmuratova Mohinur Qozoqboyevna**

*Xalqaro Nordik universiteti magistranti.*

*E-mail: [matmuratovamohinur0707@gmail.com](mailto:matmuratovamohinur0707@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada oliy ta'lif tashkilotlarida pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarini shakllantirish masalasi o'rganilgan. Innovatsion texnologiyalarini joriy etishning dolzarbliji va ularning ta'lif jarayoniga ta'siri chuqur tahlil qilingan. Maqolada malaka oshirish kurslari, tajriba almashinushi, zamonaviy texnologiyalarini joriy qilish va ilmiy-tadqiqot faoliyatini rivojlantirish kabi asosiy usullar ko'rib chiqilgan. Natijada, innovatsion texnologiyalar talabalarning ta'lif jarayonidagi faolligi va sifatini oshirish bilan birga, global raqobatbardoshlikni ham kuchaytirishi ta'kidlangan. Shuningdek, maqolada pedagog xodimlarning zamonaviy texnologiyalarini o'zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchiliklar va ularni yengish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Mazkur maqola oliy ta'lif tizimini zamonaviylashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar uchun amaliy ahamiyatga ega.

**Kalit so'zlar.** pedagog hodim, innovatsiya, tehnologiya, oliy ta'lif, O'quv jarayonida texnologiyalar, ta'lidiagi innovatsiyalar, onlayn ta'lif, pedagogik kompetensiyalar, innovatsion metodlar, elektron ta'lif resurslari.

**Annotation.** This article explores the issue of the formation of innovative technologies of pedagogical workers in higher education organizations. The relevance of the introduction of innovative technologies and their impact on the educational process has been analyzed in depth. The article examines the main methods such as advanced training courses, exchange of experience, introduction of modern technologies and development of research activities. As a result, it has been argued that innovative technologies increase students' activity and quality in the educational process while also enhancing global competitiveness. The article also provides practical recommendations on the difficulties faced by pedagogical workers in the process of mastering modern technologies and their overcoming. This article is of practical importance for measures aimed at modernizing the higher education system.

**Keywords:** pedagog employee, innovation, technology, higher education, technologies in the educational process, innovations in education, online education, pedagogical competencies, innovative methods, e-learning resources.

**Аннотация.** В данной статье рассмотрен вопрос формирования инновационных технологий педагогических работников в организациях высшего образования. Глубоко проанализирована актуальность внедрения инновационных технологий и их влияние на образовательный процесс. В статье рассматриваются такие основные методы, как курсы повышения квалификации, обмен опытом, внедрение современных технологий и развитие научно-исследовательской деятельности. В результате было отмечено, что инновационные технологии не только повышают вовлеченность и

*качество учащихся в образовательный процесс, но и повышают глобальную конкурентоспособность. Также в статье даны практические рекомендации по преодолению трудностей, с которыми сталкиваются педагогические работники в процессе освоения современных технологий. Данная статья имеет практическое значение для мер, направленных на модернизацию системы высшего образования.*

**Ключевые слова:** педагогический работник, инновации, технологии, высшее образование, технологии в образовательном процессе, инновации в образовании, онлайн-обучение, педагогические компетенции, инновационные методы, ресурсы электронного обучения.

**Kirish.** Bugungi kunda XXI asr globallashayotgan, mintaqaviy, umumjahon muammolari, hodisalari va voqealari nafaqat har bir davlatga, balki har bir insonga bevosita ta'sir o'tkazayotgan, uning ma'naviy qiyofasini, ichki dunyosini, shaxs sifatida shakllanishini belgilab beruvchi omilga aylanayotgan davrdir. Ta'lim-tarbiya jarayonida ham mazkur omilni inobatga olgan holda, yuksak ma'naviy, axloqiy tamoyillarga, vatanparvarlik g'oyaligiga, o'z xalqi, millatiga sodiqlik tuyg'ulariga amal qiladigan, o'z shaxsiy manfaatlarini umumdavlat, milliy, insoniy manfaatlar bilan uyg'unlashtira oladigan, milliy va umuminsoniy qadriyatlarning sodiq qoladigan, xalqimiz, millatimiz, dinimizga begona bo'lgan turli diniy, ekstremistik, terroristik, umuman, zararli g'oyalarga murosasizlik kayfiyatida bo'lgan, erkin fikrlovchi, mustaqil fikrga ega bo'lgan, o'zida "mafkuraviy immuniteti" shakllangan mutaxassis kadrlarni tayyorlash strategik maqsadimiz bo'lmog'i kerak. Hozirgi kunda ma'naviy ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari eng dolzarb vazifaga aylanmoqda. Chunki mafkuraviy tahdid va axborot xurujlari ko'payib borayotgan bir davrda, odamlar ongi va qalbini egallash yo'lidagi kurash jarayonlari kuchayib borayotgani uchun hayotning barcha jabxalarida, ishlab chiqarishning hamma sohalarida, aholining hamma qatlamlari orasida, xususan, kelajak bunyodkorlari tarbiyasida eng asosiy bo'g'in bo'lgan – ta'lim-tarbiya tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni zamon talablariga olib chiqish zaruratini tug'dirmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagi "Ma'naviy-ma'rifiy ishlarni tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 5040-sonli qarorida ta'kidlanganidek, bugun "Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va bunyodkorlik ishlari natijasida xalqimizning ongu tafakkuri, dunyoqarashi o'zgarmoqda. Bu borada olib borilayotgan muhim ishlarga qaramasdan, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy sohalardagi yangilanishlar jarayonida ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning samaradorligiga to'siq bo'layotgan bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda". Aslida ham bugungi kunda ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga jiddiy sabablar mavjud. Zero, "Millat bor ekan, milliy davlat bor ekan, uning mustaqilligi va erkinligiga, an'ana va urfodatlariga tahdid soladigan, uni o'z ta'siriga olish, uning ustidan hukmronlik qilish, uning boyliklaridan o'z manfaati yo'lida foydalanishga qaratilgan intilish va harakatlar doimiy xavf sifatida saqlanib qolishi muqarrar". O'z o'rnida bunday xavf-xatarlardan millatni yuksak ma'naviyatlilik asrab qolishga qodir bo'ladi. Ayni paytda jamiyatimizda olib

borilayotgan ta'limgarayonidagi islohotlarning bosh maqsadi ham ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirib borish asnosida barkamol avlodni tarbiyalashdir. Zero, bu borada olib borilayotgan ishlar samaradorligi ko'p jihatdan ta'limgarayonidagi muassasalarida yoshlarga berilayotgan ta'limgarayonidagi sifati bilan chambarchas bog'liq. Haqiqatdan ham ta'limgarayonidagi tizimida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni oqilonva maqsadga muvofiq tashkil etish umum davlat siyosati miqyosidagi vazifadir. Zero, ta'kidlanganidek, ma'naviy ma'rifiy va mafkuraviy targ'ibot ishlari hech qachon hozirgidek dolzarb vazifaga aylanmagan. Shuning uchun ham ta'limgarayonidagi muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlarni samarali tashkil etish g'oyat muhim masala bo'lib turibdi. Oliy ta'limgarayonidagi bugungi kunda juda tez o'zgarayotgan dunyo sharoitida yangicha yondashuvlar va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishni talab qilmoqda. Ta'limgarayonidagi yuz berayotgan o'zgarishlar, shuningdek, zamonaviy pedagogik jarayonlarning dinamik rivojlanishi, pedagoglarning yangi usullar va texnologiyalarni o'zlashtirishini taqozo etadi. Innovatsion texnologiyalar, o'qitish va o'rganish jarayonlarini yanada samarali va interaktiv qilishda muhim rol o'yndaydi. Oliy ta'limgarayonidagi pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va qo'llashga bo'lgan ehtiyoj, ayniqsa, masofaviy ta'limgarayonidagi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), sun'iy intellekt va o'quv jarayonida yangi metodik yondashuvlarning joriy etilishi bilan keskin oshdi.

Pedagog xodimlarining innovatsion texnologiyalarni shakllantirish, ta'limgarayonidagi sifatini oshirish va pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion texnologiyalarni pedagoglar tomonidan o'zlashtirish jarayoni, ularning kasbiy malakasini oshirish va yangi o'quv metodikalarini ishlab chiqishga turtki beradi. Oliy ta'limgarayonidagi tashkilotlarida pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarni shakllantirish jarayonida turli metodik yondashuvlar, masofaviy o'qitish platformalari, interaktiv ta'limgarayonidagi texnologiyalari va sun'iy intellekt kabi zamonaviy vositalar qo'llanadi. Ushbu ishning maqsadi – oliy ta'limgarayonidagi pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarini shakllantirishning ahamiyatini, metodlarini va amaliyotini o'rganish, hamda ularni ta'limgarayonida qo'llashning samaradorligini tahlil qilishdir. Oliy ta'limgarayonidagi innovatsion texnologiyalarning roli va pedagog xodimlarining bu texnologiyalarni o'zlashtirish jarayoni, ta'limgarayonidagi sifatini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilish, ushbu jarayonni samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan metodologik yondashuvlarni aniqlash ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi hisoblanadi. Shu maqsadda, adabiyotlar tahlili va ilmiy yondashuvlar asosida pedagog xodimlarga innovatsion texnologiyalarni o'rgatish, ularni amaliyotga tatbiq etish va natijalarni baholash jarayonlari tahlil qilinadi. Bu ishning natijalari oliy ta'limgarayonidagi innovatsion texnologiyalarini qo'llashni rivojlantirish va pedagog xodimlarining kasbiy rivojlanishiga qaratilgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Malaka oshirish kurslari: Pedagoglarning kasbiy malakasini oshirish uchun maxsus tayyorlangan treninglar tashkil etiladi. Onlayn ta'limgarayonidagi platformalari orqali masofaviy o'qitish imkoniyatlari yaratiladi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishni o'rgatuvchi qisqa muddatli kurslar amalga oshiriladi. Tajriba almashinuvi: Xalqaro va mahalliy miqyosda seminarlar va konferensiyalar

tashkil etish orqali tajriba almashish imkoniyati yaratiladi.Ustoz-shogird tizimi orqali o'qituvchilar o'rtasida tajriba almashinuvi yo'lga qo'yiladi.Zamonaviy texnologiyalarga oid muvaffaqiyatli loyihalarni o'rganish va ularni amaliyatga tatbiq etish.Innovatsion texnologiyalarni joriy etish:AKT vositalari, masalan, multimedia, elektron ta'lim platformlari, va virtual laboratoriyalarni o'quv jarayoniga tatbiq qilish.Interaktiv usullar, masalan, o'yin texnologiyalari, loyiha asosida o'qitish va simulyatsiyalarni qo'llash orqali talabalarning ishtirokini oshirish.Blended learning (aralash ta'lim) yondashuvini keng joriy qilish.Ilmiy-tadqiqot faoliyati:Innovatsion texnologiyalarni ta'limda qo'llash bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish.Ilmiy maqolalar, monografiyalar va qo'llanmalar tayyorlash orqali natijalarni ommalashtirish.Talabalar bilan hamkorlikda innovatsion loyihalarni ishlab chiqish. Oliy ta'lim tizimida pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish va ulardan samarali foydalanish masalasi bir necha yildan buyon ilmiy tadqiqotlar va metodik ishlanmalarga asos bo'lib kelmoqda. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish, ta'lim sifatini oshirishga, pedagoglarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishga, o'quvchilarning faoliyatini individualizatsiya qilishga yordam beradi. Bir qator ilmiy ishlar va tadqiqotlar, masalan, D. L. Uoz, S. V. Ivankov, N. S. Shumilova va boshqa mutaxassislar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, pedagogik jarayonlarda innovatsion texnologiyalarni qo'llashning ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Ularning fikriga ko'ra, innovatsion texnologiyalar pedagoglarning o'qitish usullarini diversifikatsiya qilish va yangi yondashuvlarni yaratishga yordam beradi.

Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida olib borilgan tadqiqotlar pedagog xodimlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni muhim ekanini ko'rsatadi. Masalan, M. S. Gileva va E. P. Efimova o'z tadqiqotlarida AKT vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali pedagoglar o'z o'quvchilariga interaktiv, individual va masofaviy o'qitishni taqdim eta olishlarini ta'kidlashgan.Innovatsion texnologiyalarni pedagogik faoliyatga integratsiya qilish masalalari haqida O'zbekiston olimlari, xususan, A. K. Toshpulatov, F. T. Yunusov va B. Sh. Urozov o'z ilmiy ishlanmalarida pedagoglar uchun yangi metodik va texnologik yondashuvlarni ishlab chiqish muhimligini ta'kidlashgan. Ularning ilmiy ishlarida yangi texnologiyalarni o'qitish jarayoniga joriy qilish, shuningdek, o'quvchilarga zamonaviy kommunikativ texnologiyalarni o'rgatish muhim ekanligi ko'rsatilgan.

**Natija.** Innovatsion texnologiyalarni joriy etish natijasida:Talabalarning faolligi oshadi: Interaktiv va texnologik yondashuvlar talabalarning ta'limga qiziqishini oshiradi.Shaxsiy yondashuv rivojlanadi: Talabalar individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda bilim oladi.Oliy ta'lim sifati yaxshilanadi: Ta'lim jarayonining zamonaviy texnologiyalar bilan boyitilishi samaradorlikni oshiradi.Global moslashuv kuchayadi: Innovatsion texnologiyalar xalqaro ta'lim tizimlari bilan integratsiyalashishni osonlashtiradi.

Tadbir / Yo'naliш	Ma'lumot / Tavsif	Natija
Pedagog xodimlarga ta'limdagi innovatsion texnologiyalarni o'rgatish	Oliy ta'lim muassasalarida pedagog xodimlarga zamonaviy ta'lim texnologiyalari haqida kurslar va seminarlar tashkil etish.	Pedagog xodimlar yangi texnologiyalarni o'z faoliyatida qo'llashni boshlaydi.
Innovatsion texnologiyalarni dars jarayoniga integratsiya qilish	Interaktiv ta'lim usullari, masofaviy o'qitish platformalarini darslarga joriy qilish.	Darslarda interaktivlik va studentlarning faol ishtiroki oshadi.
Pedagoglarni axborot texnologiyalari bilan tanishtirish	Oliy ta'lim muassasasida axborot texnologiyalarini o'rgatish va ularga dasturiy ta'minotlardan foydalanish ko'nikmalarini berish.	Pedagoglar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishni o'rganadi.
Innovatsion o'quv metodlarini ishlab chiqish	Pedagoglarni yangi o'quv metodikalari va texnologiyalarini ishlab chiqishda jalb etish	Pedagoglar o'z metodikalari orqali innovatsiyalarni amalga oshiradilar.
Ta'lim jarayonida sun'iy intellekt va analitik vositalarni qo'llash	Sun'iy intellekt va ma'lumotlarni tahlil qilish uchun maxsus vositalarni o'qitish.	O'qitish jarayonini yanada samarali va shaxsiylashtirilgan qilish.
Yangi texnologiyalarga oid tadqiqot va innovatsion	Pedagogik tadqiqotlar, innovatsion texnologiyalarni	Pedagog xodimlar yangi texnologiyalarni tadqiqotlar va
loyiha ishlab chiqish	yaratish va amaliyotga tatbiq etish bo'yicha loyiha ishlari.	amaliyotlar orqali yaratadi va test qiladi.

1.rasm. Pedagog xodimlarining innovatsion texnologiyalarni shakllantirishda qanday bosqichlarni o'z ichiga olishini va ularga nisbatan qanday natijalar kutilishini ko'rsatadi.

Oliy ta'lif tashkilotlarida pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarini shakllantirish bugungi kunda muhim ahamiyatga ega. Pedagog xodimlar ta'lif jarayonini yanada samarali va ilg'or qilish uchun innovatsion texnologiyalardan foydalanish zarurligini anglab etishadi. Bu jarayonni muvaffaqiyatlama amalga oshirish uchun bir nechta muhim omillarni inobatga olish kerak. Birinchidan, pedagog xodimlarga innovatsion texnologiyalarini o'rgatish kerak. Bu, o'z navbatida, yangi metodlarni, masofaviy o'qitish platformalarini, axborot texnologiyalarini va interaktiv o'qitish vositalarini o'rgatish orqali amalga oshiriladi. Innovatsion texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etishda pedagoglar yangi metodikalar va ilg'or o'quv strategiyalarini ishlab chiqishlari kerak. Ikkinchidan, ta'lif jarayoniga sun'iy intellekt, ma'lumotlarni tahlil qilish va boshqa ilg'or texnologiyalarini integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Bu texnologiyalar nafaqat o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki pedagog xodimlarga ta'lifning samaradorligini o'lchash va rivojlantirishda yordam beradi. Uchinchidan, pedagog xodimlarni doimiy ravishda yangi texnologiyalar bilan tanishtirish, ular uchun maxsus treninglar, seminarlarga qatnashish imkoniyatlarini yaratish zarur. Bu ularga zamonaviy o'quv vositalaridan to'liq foydalanish imkoniyatini beradi. Natijada, innovatsion texnologiyalarini pedagog xodimlarga o'rgatish va ta'lif jarayonida qo'llash ularning malakasini oshiradi, o'quvchilarga yanada sifatli ta'lif berishga imkon yaratadi va ta'lif tizimining raqobatbardoshligini ta'minlaydi. Shuningdek, bu jarayon pedagoglarning kasbiy rivojlanishiga katta turki bo'lib, ular o'z faoliyatlarida innovatsion fikrlashni va yangi texnologiyalarini amaliyatga tatbiq etishni davom ettiradilar. Shunday qilib, innovatsion texnologiyalarini shakllantirish va qo'llash jarayoni oliy ta'limda yangi imkoniyatlarni yaratadi va pedagoglarning ta'lif sifatini oshirishdagi roli sezilarli darajada ortadi.

**Muhokama.** Pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarini o'zlashtirish jarayoni qator qiyinchiliklarni ham keltirib chiqaradi. Misol uchun: Texnologik infrastrukturani rivojlantirish uchun yetarli moliyaviy mablag' talab etiladi. Pedagoglarning yangi texnologiyalarini o'zlashtirishga vaqt ajratishdagi qiyinchiliklari. Innovatsion texnologiyalarini amaliyotda samarali joriy qilish uchun maxsus metodik qo'llanmalar yetishmasligi. Biroq, ushbu qiyinchiliklarni yengish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, xalqaro grantlarni jalb qilish va o'qituvchilarning doimiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish mumkin. Innovatsion texnologiyalarini shakllantirish oliy ta'lif tashkilotlarida o'qituvchilarning malakasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Pedagoglar tomonidan zamonaviy texnologiyalarini samarali qo'llash talabalarning o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini oshirishi va bilim olish sifatini sezilarli darajada yaxshilashi mumkin. Ammo bu jarayonni amalga oshirishda qator qiyinchiliklar mavjud. Birinchi muammo – infratuzilma. Ko'plab oliy ta'lif muassasalarida zamonaviy texnologik vositalar yetarli emas. Virtual laboratoriylar, multimedia xonalar va elektron ta'lif platformalarini tashkil etish uchun yetarli mablag' va texnologik bazaning yo'qligi jarayonni murakkablashtiradi. Ushbu muammoni hal qilish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligini kuchaytirish, shuningdek, xalqaro grant va investitsiyalarini jalb qilish zarur. Ikkinci muammo – o'qituvchilarning malakasi. Ko'plab pedagoglar innovatsion

texnologiyalarni qo'llashga tayyor emas. Ularni yangi texnologiyalarga moslashtirish uchun maxsus treninglar va kurslar tashkil etish talab etiladi. Bunda, ayniqsa, o'qituvchilarining individual ehtiyojlari va texnologiyalarni o'rganish tezligi hisobga olinishi muhimdir.Uchinchi muammo – vaqt va resurslarning yetishmasligi. Innovatsion yondashuvlarni o'zlashtirish va amaliyatga tatbiq etish pedagoglardan ko'proq vaqt va energiya talab qiladi. O'qituvchilarining boshqa majburiyatlarini inobatga olgan holda, ularni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini ishlab chiqish zarur.Yuqoridagi qiyinchiliklarga qaramay, innovatsion texnologiyalarni shakllantirish jarayonining afzalliklari ancha katta. Ta'lif jarayonida shaxsiy yondashuvni rivojlantirish, interaktiv vositalar orqali talabalarning ishtirokini oshirish va xalqaro darajada raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash imkoniyati ta'lif tizimining kelajakdagi yuksalishi uchun mustahkam poydevor yaratadi. Shu sababli, bu yo'nalishda amalga oshiriladigan har qanday tashabbus dolzarb va qo'llab-quvvatlanishi lozim.

**Xulosa.** Oliy ta'lif tashkilotlarida pedagog xodimlarning innovatsion texnologiyalarni shakllantirish zamонавиј та'lif jarayonining ajralmas qismidir. Bu jarayon nafaqat pedagoglarning kasbiy rivojlanishini ta'minlaydi, balki talabalarning ta'lif sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi. Innovatsion texnologiyalardan foydalanishning rivojlantirilishi oliy ta'lif muassasalarining global darajadagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, pedagog xodimlarning innovatsion yondashuvlarga ega bo'lishini rag'batlantirish, ularga zaruriy sharoitlarni yaratish hamda texnologik yangiliklarni joriy qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2021 yil 26 martdagи "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi 5040-sonli qarori.
2. Toshpulatov, A. K. (2020). Oliy ta'lifda innovatsion texnologiyalarni qo'llash: metodik yondashuvlar. Tashkent: O'zbekiston fanlar akademiyasi nashriyoti.